Yuldashev. F. A.
Farg‘ona davlat univeriteti, falsafa va milliy g‘oya kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.b.f.d. (PhD)

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGI VA EKZISTENSIAL JARAYONLARNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi raqamlashgan jamiyatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning hayotiy qarashlari, mustaqil fikri, ijtimoiy faolligi kabi masalalar tahlil qilingan bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va kelajagini belgilashda yosh avlod ongi va tafakkurini rivojlantirish, maqsad-qarashlari va dunyoqarashini ijobiy tomonga yo‘naltirishga doir fikr-mulohazalar yoritilgan.

Аннотация*:* В статье анализируются основные вопросы, как образование молодых людей в современном цифровом обществе, их взгляды на жизнь, независимое мышление и социальная активность, а также обсуждаются идеи по развитию сознания и мышления молодого поколения, направлению их целей, видений и мировоззрения в позитивное русло для определения развития и будущего общества.

Abstract: The article analyzes such issues as the education of young people in a modern digital society, their views on life, independent thinking and social activity, and discusses ideas for developing the consciousness and thinking of the younger generation, directing their goals, visions and worldview in a positive direction to determine the development and future of society.

Kalit so‘zlar*:* yoshlar, raqamli jamiyat, ijtimoiy faollik, taraqqiyot, ong, dunyoqarash, manfaat, mustaqil fikr, ekzistensial holat, ta’lim-tarbiya.

Ключевые слова: молодежь, цифровое общество, социальная активность, развитие, сознание, мировоззрение, интерес, самостоятельное мышление, экзистенциальное состояние, образование.

Key words: youth, digital society, social activity, development, consciousness, worldview, interest, independent thinking, existential state, education.

Mustaqillikka erishilgandan keyin jamiyatning barcha soxalarida olib borilayotgan islohotlar qatori davlatimiz tomonidan yoshlarga e’tibor kuchaytirildi. Raqamli jamiyatda endigina hayotga qadam qo‘yayotgan, ongi endigina shakllanib kelayotgan yoshlarni asrab avaylash, ularni begona yot g‘oyalar ortidan ergashib ketishlarini oldini olish va kelajak uchun komil inson qilib tarbiyalash asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi. Jamiyatning asosiy resursi axborot bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarning aksariyati raqamli jamiyat orqali amalga oshadigan, insonning axborot almashish, mehnat qilish, o‘rganish va ijtimoiylashish kabi maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy raqamli jamiyat xuquq va majburiyatlar birligini anglashga asoslangan va yoshlar ijtimoiy faolligiga qaratilib, birinchi navbatda faol, erkin va mustaqil fikrlaydigan yoshlar

bilan shakllanadi. Shu munosabat bilan fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarda ta’lim-tarbiyani yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar zamonaviy jamiyatini qurishda o‘z xuquq va manfaatlari asosida davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishlari lozim. Davlatimiz konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy xuquqlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyati barpo etishning asosi xisoblanadi[1]. Hozirda o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuksak madaniyati mana shu xuquq va burchlariga sodiqligi, uni qay darajada amalda qo‘llashi orqali ko‘rinadi. Xozirgi kunda davlatimizning iqtisodiy-ijtimoiy qudrati, uning jahon miqyosidagi nafuzining oshib borishi jamiyatda ijtimoiy faolligini yuksaltirishga bog‘liqdir. Ijtimoiy faollik jamiyat siyosiy hayotida milliy manfaatlarni amalga oshirishga, ma’lum bir gurux, qatlam va milliy birlashmalar o‘rtasida umuminsoniy maqsad va qarashlarni shakllanishiga xizmat qilib, maqsad, qadriyat va meyorlar asosida shaxsning ijtimoiy madaniy saviyasini shakllantiradi.

Ijtimoiy faollik – jamiyat siyosiy-ijtimoiy tizimining tarkibiy qismi sifatida yoshlarni ertangi kun istiqboli uchun intilishlarini, ularning ijtimoiy xarakatlarini, axborotga ega bo‘lish, ijtimoiy bilimlarini oshirish, jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish jarayonlarini belgilab beradi[2]. Bundan tashqari yoshlarning turli ijtimoiy guruxlardagi o‘rni, davlat xokimiyati, siyosiy tashkilotlardagi ishtiroki, boshqa davlat va millatlar bilan munosabati kabi masalalarda ularning ijtimoiy faollik darajasini ko‘rsatadi. Xozirgi kunda yoshlar ijtimoiy faolligiga aloxida e’tibor bilan yondoshib, uni o‘ziga xos mustaqil madaniyat turi sifatida qabul qilish lozim. Chunki ushbu tushuncha moxiyati va amalda namoyon bo‘lishiga ko‘ra jamiyat taraqqiyotiga ongli munosabatni anglatadi. Shu sababdan xozirgi yoshlardan jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy hayotni erkinlashtirishda faol ishtiroki talab etiladi. Bu bilan yoshlarning davlatning ichki va tashqi siyosatining mohiyatini anglashi, erkin tahlil qila olishi, jamiyat ijtimoiy hayotida kechayotgan voqea-xodisalarni mustaqil baxolay olish qobiliyati shakllanishini ko‘rsatib beradi. Yoshlarni ijtimoiy faolligi u yashayotgan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy tizimga bog‘liq ravishda rivojlanib, o‘sha jamiyatni tashkil etayotgan yoshlarning saloxiyati, bilim va tafakkuriga tayanadi va shu orqali jamiyatga bo‘lgan ijtimoiy munosabatini ochib beradi. Zamonaviy jamiyatida yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdan asosiy maqsad shaxsning faoliyatidagi imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarni ijtimoiy tengligini va qadr-qimmatini mustaxkamlashdir. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda bugungi kunda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Albatta ushbu siyosiy jarayonlar birinchi navbatda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga bog‘liq ravishda yuritiladi. Kishilarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirish maqsadida, ularning o‘zaro birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy, axloqiy, ma’naviy hamda boshqa ijtimoiy munosabatlari yig‘indisidan tashkil topgan majmua jamiyat deb yuritiladi[3]. Jamiyatda insonning xuquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan, uning manfaatlari ustuvorligiga e’tibor qaratiladigan tushunchadir. Bunday jamiyatda eng asosiy e’tibor fuqaroga qaratilgan bo‘lib, barcha insoniy munosabatlar ulug‘lanadi. Inson faoliyatini shunchaki mehnat yoki ijtimoiy harakat bilan emas, balki uni ekzistensial harakat deb qarash lozim. Shu ma’noda inson faoliyatida birinchi navbatda quyidagi omillarga

e’tibor qaratish talab etiladi:

-Erkinlik va mas`uliyat. Inson faoliyatida har bir lahzadagi erkin tanlovi, har bir harakati uchun javobgar, chunki bu harakat butun insoniyat qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurimizni o‘zida aks ettiradi.

-O‘zini-o‘zi anglash (мohiyatni yaratish). Inson tug‘ilganda "tayyor" mohiyatga ega emas, uning faoliyati, tanlovi, loyihalari (maqsadlari) orqali u o‘zining kimligini – mohiyatini yaratadi. Inson faoliyati ikki xil bo‘lishi mumkin. O‘z erkinligini anglagan, chegaraviy vaziyatlar (o‘lim, yolg‘izlik) bilan yuzma-yuz kelgan va o‘z tanlovi uchun javobgarlikni olgan insonning harakatlari kuzatiladi. Erkinlik va mas’uliyat insonning mutlaq erkinligi uning faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Agar inson erkin bo‘lsa, u o‘zining har bir tanlovi, har bir harakati uchun to‘liq javobgar (mas’ul) bo‘ladi. Inson faoliyati doim kelajakka yo‘naltirilgan loyiha shaklida bo‘ladi. Inson doim hozirgi holatidan tashqariga intiladi. Ekzistensializm nazariyasiga ko‘ra, insonning ekzistensiyasi (mavjudligi) uning faoliyati (tanlash va harakat qilish) orqali uzluksiz ravishda yaratiladi. Siz kim bo‘lsangiz, bu sizning tanlovingiz va faoliyatingiz natijasidir. Insonning mavjudligini (ekzistensiyasini) uning faoliyati bilan bog‘lab o‘rganish ekzistensial falsafaning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu tadqiqot jarayonida insonning borlig‘i va uning harakatlari bir-biridan ajralmas holda tahlil qilinadi.

Hozirda jadal sur’atlarda taraqqiy etib, o‘sib borayotgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirib borish davr talabidir. Yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki sezilarli darajada o‘sib borishini davlat xokimiyati bo‘g‘inlari, siyosiy partiya va xarakatlar, ijtimoiy tashkilotlar, o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, fuqarolik jamiyati institutlarida ularning faolligi orqali kuzatish mumkin. Yoshlarning siyosiy sohadagi bilim, tajriba va madaniyati uzluksiz o‘sib boruvchi jarayondir. Yoshlarga dastlabki ijtimoiy-siysiy tushunchalarni ta’lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik bilimlarni berish orqali ularni dunyoqarashi, ongi va madaniyatini shakllantirib borish zarur. Siyosatshunos olim H.Rasulovning fikricha ijtimoiy faollikning asosi – siyosiy ong va madaniyatdir[4]. Qaysi mamlakatda axolining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori bo‘lsa, o‘sha davlat ijtimoiy hayotida demokratik tamoyillar ustuvorlik kasb etadi. Mustaqillikning taraqqiyot yo’li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda ijtimioy-pedagogik bilimlarni yanada rivojlantirish, yosh avlodni dunyoqarashini zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev aytganidek, “ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O’zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishilmoqda”[5]. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida yangicha munosabatlarni shakllantirish, mutafakkir va mutasavvuflarning ijtimoiy-falsafiy merosini har tomonlama o‘rganish uchun keng imkoniyatlardan foydalanish zarur. Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligi va ekzistensial jarayonlarning ijtimoiy asoslari har qanday jamiyat, xalqning ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Ekzistensializm inson hayotini samarali qiladigan va bundan tashqari, har bir haqiqat va har bir harakat inson sub'ektivligini nazarda tutuvchi ta'limotni nazarda tutadi. Ekzistensializmning vazifasi shaxsga e’tibor qaratish va yaratish bo‘lib, davlat, oila, jamiyatda erkinlikgi targ‘ib etib, gumanistik haqiqatni qaror topishi uchun inson qobiliyatlarini yuksaltirishga katta e’tibor qaratadi. Ekzistensializmda birinchi navbatda borliq, xususan inson borlig‘i bosh kategoriya hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda mustaqil tafakkurning o‘sishi ijtimoiy-ma’naviy muhitning, shu bilan birga shaxsning ijtimoiy qiyofasi, ichki dunyosi, manfaat va ehtiyojlarining ta’minlanishi bilan bog‘liqdir. Mamlakatimiz ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlar yoshlarning bilimi, dunyoqarashi tajriba va faolligini oshishiga katta yordam bermoqda. Shu bilan birga xozirgi kunda yoshlar ijtimoiy faolligi, inson aqli, hayotning ma’nosi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik, inson tafakkurini ezgulikka, taraqqiyotga va baxtli hayotga yo‘nalitirish ekzistensiyaning bosh maqsadiga aylanishi zarur. Ekzistensializm klassiklari asarlari tahlili zamonaviy ekzistensializmning dolzarb muammolarini ochib beradi, borliqning obyektiv shakli muammolarini muvaffaqqiyatli hal etish, inson nima uchun dunyoga keladi, nima uchun yashaydi, o‘zidan nimalarni qoldiradi. Mana shu masalalar ustida doim mushohada olib borish talab etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси” https://www.norma.uz.
2. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: “Aloqachi”, 2008. –B. 89
3. Яхшиликов Ж. Я., Муҳаммадиев Н. Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. Тошкент: “Фан”, 2017. –Б 116.
4. Расулов Ҳ. Сиёсий фаоллик. // Жамият ва бошқарув. // 2009 №3 Б.41
5. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Т: Ўзбекистон , 2022. 236-б.